

Nukus- Aktobe-Nukus muntazam aviaqatnovi

2021 26 Avgust

Biz xushxabar bilan bo'lishishga shoshilmoqdamiz – 31 avgustdan boshlab «Uzbekistan Airways» AJ Nukusdan Aktobega ikki tomonlama – seshanba va payshanba kunlari ikkita muntazam parvozni amalga oshira boshlaydi.

Aktobe – Qozog'iston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hududlari kesishgan joyda, ikki mamlakat chegarasidagi temir yo'l markazida joylashgan go'zal shahar. Shu bilan birga ushbu shahar Qozog'istonning madaniy va sanoat markazlaridan biri hamdir.

Nukus – Aktobe yo'nalishi bo'yicha aviachipta narxi: 1 048 000 so'mdan

Nukus – Aktobe – Nukus yo'nalishi bo'yicha aviachipta narxi: 1 810 000 so'mdan

Telegram: t.me/uzbekistanairways